## Bajarilishi uch yilga mo‘ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

<table>
<tr><th colspan="3">“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi</th></tr>
<tr><th>№</th><th>Amaliy<br>loyiha mavzusi</th><th>Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija</th></tr>
<tr><td>1</td><td>Qoraqalpoq zamonaviy ijrochilik san’ati va folklori namunalari jamlangan elektron platforma yaratish<br></td><td>Tadqiqotning shakli: Qoraqalpoq zamonaviy ijrochilik san’ati va folklori namunalari jamlangan elektron platforma yaratish bo‘yicha amaliy loyiha bajariladi.<br>Ilmiy-tadqiqot natijalari:<br>- nomoddiy meros namunalarini o‘zida olib yuruvchi: jirovlar, baxshilar, qissaxonlarning bugungi kundagi repertuarlarini jonli ijrodan yozib olish, qiyosiy tahlil qilish, audio va video tasmasini yaratish;<br>- yozib olingan qoraqalpoq xalq dostonlari, qissalari qo‘lyozmalarning ilmiy tasniflash va ularni to‘la foydalanishga sharoitlar yaratish maqsadida ilmiy konsepsiyalar ishlab chiqish;<br>- Qoraqalpoq folklori ko‘p jildligining kelgusi nashrlarini tayyorlash bo‘yicha ishlarni tashkil qilish;<br>- Qoraqalpoq jirovchilik, baxshichilik va qissaxonchilik san’ati tarixi, asriy an’analari, ijrochilari, uslubi va mahorati, maktabi, bugungi taraqqiyoti kabi masalalarga bag‘ishlangan tadqiqot ishlarini olib borishga imkon yaratish;<br>- Qoraqalpoq zamonaviy folklor janrlariga oid namunalarini ijrochilar va informatorlardan yozib olish, raqamlashtirish, elektron va nashr variantlarini yaratish, ilmiy o‘rganish hamda targ‘ib qilinadi;<br>- Qoraqalpog‘iston Respublikasi ichkarisi ekspeditsiyalar tashkil etiladi hamda tashqarisidagi viloyatlariga zamonaviy folklor namunalarini yozib olish maqsadida etnofolklor ekspeditsiyalar tashkil etiladi;<br>- etnofolklor ekspeditsiya vaqtida yig‘ilgan qo‘lyozmalarning ilmiy tasnifini ishlab chiqiladi;<br>- Qoraqalpoq zamonaviy ijrochilik san’ati va folklori namunalari jamlangan elektron platforma yaratiladi.<br>Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Madaniyat vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi.<br>Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</td></tr>
<tr><td colspan="3">Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 1800 barobari</td></tr>
</table>

***Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 5400 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati uch yilga mo‘ljallangan bo‘lishi shart***